



MULOQOTDA SHAXS IJTIMOYIY MAQOMINI IFODALASH YO‘LLARI

Ro‘zimatova Dilnoza Murodovna,

O‘zRFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
dilnozarozimatova05@mail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243810>

Annotatsiya. *Ijtimoiy maqom – bu ma’lum xususiyatlar majmuasini aks ettiruvchi shaxsning ko‘p qirrali xususiyatidir. Ushbu maqolada ijtimoiy maqom tushunchasi, uning sotsiologiya, psixologiyadagi ta’riflari, asosiy xususiyati haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, tilshunoslikda ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Nutqiy muloqot haqida fikrlar bayon qilingan. Muloqot ishtirokchilari o‘z nutqlari bilan ijtimoiy maqomlarini ko‘rsatib berishlari mumkinligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *til, nutqiy muloqot, ijtimoiy maqom, ijtimoiy rol, maqom ko‘rsatkichlari, verbal va noverbal vosita.*

Nutqiy muloqot o‘zida kishilarning murakkab, boy va rang-barang sotsial faoliyatini ifodalaydi, va bir vatqning o‘zida mana shu faoliyatni tashkil etishga mos va xoslangan bo‘ladi. Inson muloqot asosida shakllanib, muloqot vositasida takomillashib boradi. Shaxs va jamiyat sotsial taraqqiyotining muhim shartlaridan biri – nutqiy muloqotdir. Tilning kommunikativ qudrati, takomillashuvi, tushunarlik darajasi unda sotsial omillarning qay darajada aks etganligi hamda sotsial tiplarning kommunikativ ehtiyojini qondirishi qay darajada ekanligi ilan bog‘liq [6:62].

Sotsiologiyada ijtimoiy rol va ijtimoiy maqom tushunchalari bir-biri bilan bog‘liqdir. N.I. Formanovskaya “ijtimoiy rol”ni “lavozim va vazifaning belgilangan birikmasi” deb ta’riflaydi. Bundan tashqari, odamlar ongida u yoki bu rol xulq-atvor namunasi bilan, bu roldagi shaxsning majburiyatlari qanday ekanligi, va qanday haq-huquqqa egaligi bilan bog‘liqdir [5:44]. Sotsiologiyada “ijtimoiy rol” shaxsning, jamiyatning bir bo‘lagi, bajaradigan ma’lum ijtimoiy vazifasidir [2:125]. Ijtimoiy vazifalar insonning ijtimoiy maqomini belgilaydi, bu ko‘plab ijtimoiy rollarni umumlashtiradi. Q.Rasulov kommunikativ aktda ishtirok etadigan kommunikantlarning “zaruriy komponentlari” sifatida ularning ijtimoiy maqomi, ijtimoiy vazifasi va ijtimoiy pozitsiyasini ko‘rsatadi¹. Bu o‘rinda, ijtimoiy maqom atamasi ma’lum ijtimoiy tizim qonuniyatlariga xos pozitsiya bilan bog‘liq bo‘lgan holda shaxsning sotsiumning yuqori[hukmron] yoki quyi [tobe] huquqiylik darajasini ifodalovchi belgilariga nisbatan qo‘llaniladi. Ijtimoiy vazifa atamasi o‘rnida sotsiumning kasbidan kelib chiqadigan tegishli ijtimoiy guruh talablari taqozo qiladigan majburiyat belgisini ifodalaydi. Ijtimoiy pozitsiya atamasi esa sotsiumning kommunikativ aktdagi ijtimoiy maqom va ijtimoiy vazifa ta’sirida egallaydigan o‘rnini ko‘rsatib beradi [4:18]. Fikrimizni aniqroq bayon etadigan bo‘lsak, ijtimoiy

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



maqomi sotsiumning kasb-kori va mavqeyining huquqi ta'sirida shakllanadigan xarakterini, yani huquqiylik darajasini belgilasa, ijtimoiy vazifasi uning kasbiy majburiyatini, burchini va ijtimoiy pozitsiyasi esa sotsiumning kommunikativ vaziyatda tutgan o'rnini belgilaydi. Kommunikantlarning bu belgilari bir-birini to'ldirib, yaxlit holda sotsiumning nutqi, nutqini yo'nlatiruvchi xarakterli parametrlari va o'zini tutish holatlarini, ya'ni muloqot xulqini bevosita belgilab turadi va bularning barchasi kommunikantlarning ijtimoiy roli atamasi ostida birlashtiriladi [4:20]. Darhaqiqat, ma'lum bir jamiyatda ma'lum bir maqomga ega bo'lgan odamlar uchun mos deb topilgan xatti-harakatlarning ma'lum bir namunasi, barqaror xatti-harakatlar shakli, shu jumladan, insonning harakatlari, fikrlari va his-tuyg'ulari "ijtimoiy rol" ni ifodalaydi. Rol xulq-atvori – bu ma'lum bir ijtimoiy maqomga ega bo'lgan shaxsning insonlarning undan nima kutishlariga muvofiq xatti-harakatlaridir. Ijtimoiy rol rasmiy ravishda, masalan, qonun hujjatlarida shaxsga berilishi mumkin yoki norasmiy xususiyatga ega. Har bir inson jamiyatda bir emas, balki butun bir ijtimoiy rollar majmuasiga ega. Ularning jamlanmasi rollar tizimi deb ataladi. Ijtimoiy rollar xilmaxildir, lekin agarda ba'zi ijtimoiy rollar bir-biriga zid bo'lsa, shaxsda ichki ziddiyatning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy maqomning qanday ifodalanishi haqida gap ketganda, bu quyidagi shakllarda bo'lishi mumkinligini ta'kidlash mumkin: 1. Verbal va noverbal. 2. Ixtiyorsiz va qasddan. 3. To'g'ridan to'g'ri va bilvosita.

Ijtimoiy maqomning ifodalashning to'g'ridan to'g'ri ifodalanadigan usuli haqida gap ketganda, bunda ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muayyan so'zlar va imo-ishora, jestlar, murojaatlar, xushmuomalalilik formulasi, salomlashish haqida alohida aytib o'tish darkor. Ijtimoiy maqomning bilvosita ko'rsatkichlari batafsil talqin qilishni talab qiladi, ular esa tabiatan farq qiladi va hayotning ijtimoiy maqom bilan bog'liq sohalariga [ta'lim, shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, ishi, moliyaviy ahvoli, xatti-harakatlar va boshqalar] tegishli. Ijtimoiy maqom ko'rsatkichlaridan hisoblangan turmush tarzini ko'rsatish insonni o'rab turgan deyarli barcha obyektarga, shuningdek, hodisalar, munosabatlar, xatti-harakatlar, baholash va boshqalarga taalluqlidir. Nutqning ijtimoiy ko'rsatkichini fonetika, leksika va grammatikada kuzatish mumkin. Ijtimoiy maqom tengsizligi sharoitida tinglovchiga hurmat muloqot ishtirokchilarining nisbiy erkinligi darajasida amalga oshiriladi: muloqotda ijtimoiy maqomi past ishtirokchi yuqori darajadagi sherigiga qaraganda xulq-atvor shakllarini tanlashda kamroq erkinlikka ega. Umuman olganda, maqom munosabatlarining ifodasi turli madaniyat va tillarda juda o'ziga xosdir. Bu, xususan, murojaatning maxsus shakllarida namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy maqomi va

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ijtimoiy munosabatlarning muhim muammolaridan biri shaxsning muloqot xulqi va unga sotsial omillarning ta'sirini o'rganishdir. Hozirgi o'zbek jamiyatshunosligida jamiyatni yuqori, o'rta va quyi qatlamga ajratish qariyb kuzatilmaydi, jamiyatni bu tarz tabaqalashdan tiyilinadi, balki boshqaruvchi, tadbirkor, ziyoli, ehtiyojmand qatlamlar tilga olinadi. Sotsiolingvistikani esa ijtimoiy toifalarining tildan foydalanishidagi o'ziga xosliklarni aniqlash qiziqtiradi [3:12].

Ijtimoiy maqom til bilan bevosita bog'liq, chunki insonning nutqi uning jamiyatdagi mavqeiga ham bog'liq. Buni biz oliy ma'lumotli inson nutqi bilan oddiy dehqon nutqidagi farqdan ham bilishimiz mumkin. Sotsiolingvistika murakkab fan bo'lib, tilning ijtimoiy mohiyatini va uning ijtimoiy vazifalarini o'rganish uchun tilshunoslik, sotsiologiya va etnografiya fanlari ham yordamga keladi. Zamonaviy sotsiolingvistika doirasida tilning ijtimoiy tomonlarini tavsiflovchi tushunchalar tizimi ishlab chiqilgan. Ular orasida: til jamoasi, til kodi, ijtimoiy-kommunikativ tizim, til holati. Til jamoasi deganda lisoniy va ijtimoiy aloqalar bilan birlashgan jamoa tushuniladi. Asosiy til hamjamiyatiga xos xususiyat—bu muloqot, shuningdek, ushbu jamoa a'zolari o'rtasida barqaror aloqalarning mavjudligi. Til jamoasini aniqlash uchun uning ham lingvistik, ham ijtimoiy tomonlarini hisobga olish kerak.. Nutqning xususiyatlari ijtimoiy maqomni tasdiqlash vositalaridan biridir. Ijtimoiy yo'naltirilgan muloqotda nutq xatti-harakatlarining eng muhim omillaridan biri so'zlovchi va tinglovchining ijtimoiy rollari hisoblanadi. Shu bilan birga, quyidagi vazifaviy bog'liqlik mavjud: nafaqat rolli vaziyat ishtirokchilarining nutq xatti-harakatlarining xarakterini belgilaydi, balki tanlangan lingvistik vositalar ham ijtimoiy vaziyatni ko'rsatadi va tasdiqlaydi. Shubhasiz, til ishtirokchilarning ijtimoiy maqomini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Suhbatdoshlarning muloqot qilishlari uchun eng muhim ijtimoiy rollari qayd etilganida, muloqotchilarning ijtimoiy maqomi va rolini namoyish qiluvchi bilvosita ijtimoiy-ramziy vositalar mavjud. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: 1.Murojaat shaklini tanlash. Shubhasiz, tinglovchi kimligiga qarab murojaat shakli tanlanadi, agar ijtimoiy maqomlar teng bo'lsa, so'zlovchi tinglovchiga o'z shaxsiy munosabatini bildiradi [2:68]. Murojaat shakllarini o'zgarishi orqali munosabatlarning rasmiy yoki norasmiyligini, shuningdek, shu asosda ijtimoiy masofani o'rnatish kerakligini bilib olish mumkin. Masalan, murojaatlar: “Xonimlar va janoblar!”, “do'stlarim”, “azizim” singari murojaatlar muloqotchilar o'rtasidagi masofa qanday ekanligi hamda ijtimoiy maqom teng yoki teng emasligi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Salomlashish yoki xayrlashishning qaysi turi tanlanganiga qarab ham ijtimoiy maqom haqida xabar topishimiz mumkin. Masalan, “Salom.Qalaysan?”, “Bo'пти, ko' rishamiz”,



“Assalomu alaykum”, “Hurmatli majlis qatnashchilari!”, “Xayr”, “Gaplashamiz”, va shunga o‘xshash nutqiy etiketlar muloqotchilarning ijtimoiy maqomi haqida xabar bera oladi. Masalan, rus tilida murojaat shaxsning fuqarolik ijtimoiy maqomini aniq aks ettiradi: “Ivan Petrovich”, “o‘rtoq Petrov”, “Fuqaro Petrov”. Bu holatni o‘zbek tilida ham ko‘rishimiz mumkin [1:21]. Masalan, harbiylar, tergovchilar, mansabdorlar va unga bo‘ysinuvchi oddiy fuqaro o‘rtasidagi muloqotda, militsiya xodimi va fuqaro o‘rtasidagi muloqotda, o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotida.

2. Talaffuzga ataylab taqlid qilish. Ko‘pgina tadqiqotlarga ko‘ra, odam o‘z nutqini muloqotdagi sherigining talaffuziga moslashtirishadi, agar shu holatda bir-birlariga hamdardlik bildirsalar, maqsadga muvofiqdir.

3. Nutq xulq-atvori uslubini tanlash. Muloqotchilarning ijtimoiy maqomlari ularning tanlagan nutq uslublari bilan ham farqlanadi. Jumladan, rasmiy, so‘zlashuv uslublari muloqot qiluvchilarning ijtimoiy maqomi haqida ma‘lumot bera oladi. Agar ular o‘rtasida ijtimoiy maqomda farq bo‘lsa, tinglovchini harakatga undaydigan, uni boshqaradigan gaplardan foydalanadilar. Murojaat qilishda “Sen” yoki “Siz” shaklidan foydalanish muloqot uslubining o‘zgarishi bilan tavsiflanadi, bu usul so‘zlashuvchilarning ijtimoiy maqomini oshirishga yoki pasaytirishga qaratilgan. Bu ham nisbiy tushuncha hisoblanib, yurtimizning ayrim hududlarida “siz” murojaati katta-yu kichikka nisbatan ishlatilishi mumkin.

Nutqning ijtimoiy ko‘rsatkichi ohangda ham ko‘rinishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, muloqot ishtirokchilarining jamiyatda maqomi qanchalik baland bo‘lsa, ular suhbatni qanchalik nozik va muloyim olib boradilar, intonatsiya shoshqaloq bo‘ladi, hatto ovoz modellashtiriladi [Geertz, 1982:173]. Nutqdagi ohang xususiyatlari shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ijtimoiy maqom ko‘rsatkichi talaffuz, so‘z tanlash va me‘yoriy grammatika qoidalariga rioya qilish orqali ko‘rib chiqiladi.

V. I. Karasik muloqot jarayonida ijtimoiy maqom quyidagi shakllar orqali namoyon bo‘lishini aytgan: 1] fe‘l mayli, xususan, buyruq mayli, modal ma‘noli fe‘llar; 2] kishilik va egalik olmoshlari [2:168]. Muloqot jarayonida ijtimoiy maqom suhbatdoshlarning ma‘lumotli yoki ma‘lumotga ega emasliklarida ham ko‘zga tashlaandi. Bilimli odamning to‘g‘ri nutqining eng yorqin misollaridan biri bu ommaviy axborot vositalarining tilidir. Ommaviy axborot vositalari jamiyatga katta ta‘sir ko‘rsatadi, shu bilan birga, nafaqat ijtimoiy ong va muayyan hodisalarga munosabat shakllanadi, balki tinglovchilarning nutqi ham shakllanadi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalarining fuqarolarning ongiga, nutqiga ta‘sir etish vazifasi ham mavjuddir.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Быганова А.Е. Прагматический аспект категории социального статуса в немецкоязычном тексте. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 143 с.
2. Карасик. И.В. Язык и социальный статус. – Москва., 1992. – С. 265.
3. Одилов Ё. Тилдаги ўзгаришларда ижтимоий омилларнинг ўрни. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2024.– №2. – Б.8-14.
4. Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1993. – Б.144
5. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения– М. 2002. – С. 117

